

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
X. Xamzayev
_____ **2026 yil**



«KELISHILGAN»
O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i _____ **A. Norboyev**



«KELISHILGAN»
Filologiya fakulteti dekani
_____ **Sh. Djabbarov**



60112600 – Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (tillar bo‘yicha)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik
fanlardan

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60112600 – Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (tillar bo‘yicha)

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-son qarori 1-ILOVA si bilan tasdiqlangan "**Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida**"gi NIZOM talablari asosida ishlab chiqilgan.

Dastur Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasining 2026-yil 10-fevraldagi navbatdan tashqari yig'ilishida muhokama qilingan hamda Filologiya fakultetining 2026-yil 11-fevraldagi navbatdan tashqari Kengashida ma'qullangan. Universitet Kengashining 2026-yil 12-fevraldagi navbatdan tashqari yig'ilishida tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

A. Mamatov - Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasining professori

Sh.X. Djabbarov – Filologiya fakulteti dekani, f.f.f.d.(PhD), dotsent

Sh.S. Uzoqova Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasining mudiri, f.f.f.d.(PhD)

N.Q. Bo'riyeva - Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasining dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

I. Avyasova - Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrasining dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Taqrizchi:

O. Xolmurodova - JDPU Filologiya fakulteti, Roman-german tillari kafedrasining mudiri, dotsent

U. Jumanazarov – Samarqand chet tillar instituti professori, DcS

KIRISH

Ushbu Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturi 2025/2026 o'quv yilida bitiruvchilarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug'i bilan tasdiqlangan malaka talabi asosida ishlab chiqilgan o'quv rejaga asosan ishlab chiqildi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI o'tkaziladigan fanlar tarkibi:

1. O'rganilayotgan til nazariy aspektlari (majburiy fanlari)
2. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi (majburiy fanlari)
3. O'qish va yozuv amaliyoti (majburiy fanlari)
4. Nutq malakalari integratsiyasi (majburiy fanlari)

1. "O'RGANILAYOTGAN TIL NAZARIY ASPEKTLARI" FANI BO'YICHA

"Leksikologiya faniga kirish". Fanning mazmuni. Leksikologiya fan sifatida. Leksikologiya terminining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Leksikologiya boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Fanning predmeti va obyekti, fanning metodi va ishlatish yo'llari. Leksikologiya fanining bo'limlari va uning boshqa qismlari bilan bog'liqligi.

Leksikografiyaning fan sifatida rivojlanishi. Lug'atlarning asosiy turlari: ensiklopedik, lingvistik, izohli va tarjima lug'atlari. Lug'at turlari muammosi va ularni yaratish uslublari. Lug'atlar uchun so'z tanlash, lug'at maqolalarining tuzilishi va boshqalar. Ingliz, nemis, fransuz va ispan tillaridagi lug'atlarning asosiy turlari: izohli va tarjima lug'atlari, sinonimlar lug'ati, frazeologik birliklar lug'ati, etimologik, ideografik, maxsus lug'atlar, neologizmlar lug'atlari va boshqalar.

So'z til lug'at tarkibining asosiy birligi sifatida. So'zning morfema, so'z shakli, so'z birikmasidan farqli xususiyatlari. Motivatsiya tushunchasi. Idiomatika va motivatsiya turlari: fonetik, morfologik, semantik. Ma'no va so'z ma'nosining tuzilishi. O'rganilayotgan til, ona tili va boshqa tillardagi so'zlarning semantik tuzilishi. So'z ma'nosining tuzilishini o'rganishda paradigmatika va sintagmatikaning roli. Kontekst va uning turlari. Sodda, tub, yasama va qo'shma so'zlarning o'ziga xos ma'nolari. So'z ma'nosi va uning tuzilishi. Frazeologik birliklar ma'nolarining xususiyatlari, ma'no turlari tasnifi. So'zning leksik- semantik variantlari.

So'z ma'nosining o'zgarishi va natijalari. Ma'no tuzilishida sinxronik va diaxronik qarashlar va uning rivojlanish qonuniyatlari. Lug'at birligini semantik guruhlariga ajratish.

Semantik maydon tushunchasi. Monosemiya, polisemiya, omonimlar-til birliklari sifatida. Giperonimiya va giponimiya muammolari. Sinonim, antonim va masalalari, va ularning manbalari, tasnifi, tilni boyitishi va til rivojlanishidagi ahamiyati.

So'zlarning semantik klassifikatsiyasi. Ingliz tilida so'zlarning semantik qatlami, kitobiy uslub, so'zlashuv uslubida so'zlar, so'zlarning turli semantik va noseantik guruhlari.

So'zning morfologik tuzilishi. Bir va ko'p morfemali so'zlar. Morfemaning leksik birlik ekanligi. Morfemalar turlari va sinflari. So'z negizi va uning turlari. Hozirgi zamon ingliz tilida so'z tuzilishining turlari. So'z tuzilishiga diaxronik va sinxronik qarash. Morfemalar yasash. Morfema va allomorfemalar. So'z tuzilishini morfemik tahlil qilish asoslari va ularning so'z yasash tahlilidan farqi.

Nazariy grammatika faniga kirish. O'rganilayotgan tilning genetik va morfologik xususiyatlari. Morfologiya va sintaksis. Grammatikaning ta'rifi. Grammatik shakl va grammatik ma'no.

Til va nutq tushunchalarini farqlash. Til va nutq. Aktualizatsiya. Grammatik qurilishning birliklari. Tilni grammatik jihatdan tasvirlashning turlari. Grammatikadagi metod va nazariy yo'nalishlar.

Morfologiya. O'rganilayotgan tilning grammatik vositalari: tilning grammatik qurilishi. Tilning morfologik qurilishi. Gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlar, grammatik qo'shimchalar, urg'u va intonatsiya, o'zak tarkibidagi tovushlar o'zgarishi. Morfema, morf, allomorf va ularning strukturaviy turlari. Morfemanning turlari. Analitik shakl tushunchasi. Til grammatik tizimining xususiyatlari. So'z turkumi. Asosiy so'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'zlar. O'rganilayotgan tilda so'z turkumlarining umumiy xususiyatlari. So'z turkumlarining shakl va ma'nolari. Transpozitsiya xodisasi.

Grammatik kategoriyalar. Grammatikadagi asimmetriya hodisasi. Funksional yondashuv. Grammatik kategoriyalar. Grammatik kategoriyaning mazmun plani. Grammatik kategoriyaning ifoda plani. O'rganilayotgan til grammatik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. Grammatik ma'noni ifoda etuvchi vositalar. Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. So'zning sintetik va analitik shakllari. So'z turkumlari va gap bo'laklari orasidagi munosabat. So'zning morfologik strukturasi. Morfema va uning turlari. Kombinatorika tushunchasi.

So'z turkumlari. So'z turkumi tushunchasi, so'z turkumi tushunchasi mezonlari va turli olimlarning so'z turkumi haqida fikrlari.

Ot so'z turkumi. Xorijiy tilda otning distributiv belgilari. Ularning boshqa so'z turkumlari yordamida qo'shilishi. Otning so'z turkumi sifatida morfologik va semantik xarakteristikasi. Otlarning asosiy semantik guruhlari. Son kategoriyasi. Otlarda ko'plik kategoriyasining ishlatilishi. Jamlovchi va partitiv otlar. Determinativlar. Determinativlarning so'z turkumi sifatidagi umumiy xossalari. Determinativlarning semantikasi. Kelishik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi haqida har xil nazariyalar. Egalik kelishigining shakli va uning qo'llanish xususiyatlari. Aniqlik-noaniqlik kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita. Artiklning umumnazariy muammolari, artiklning funksiyalari, Rod kategoriyasi.

Sifat va ravish. Sifat so'z turkumi sifatida. Uning asosiy xususiyatlari. Sifatning semantik tasnifi. Qiyoslash kategoriyasiga oid olmoshlarning semantikasi, sintaktik xossalari, grammatik kategoriyalari va shakllari. Ravishning semantic - grammatik guruhlari. Adverbializatsiya. 8-mavzu. Son, Olmosh. Son-so'z turkumi sifatida. Conning turlari. Sonning gapdagi vazifalari. Olmosh so'z turkumi sifatida. Olmoshning kelishik kategoriyasi. Olmoshning semantik va strukturaviy turlari.

Fe'l. Fe'l - so'z turkumi sifatida. Uning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, umumiy va farq qiluvchi tomonlari. Fe'lning morfologik vazifasiga ko'ra tasnifi: mustaqil fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar, ma'no jihatidan tugallangan va tugallanmagan fe'llar. Fe'lning grammatik kategoriyalari: aspekt (tarz) kategoriyasi, nisbat kategoriyasi. Majxul nisbatning keng tarqalish sabablari. Majxul konstruksiyalarning qo'llanish xususiyatlari. Fel mayllari. Ular to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar. Fe'lning semantik - grammatik guruhlari. Fe'l tizimidagi grammatik ma'nolarni ifoda qilish vositalari. Fe'lning shaxssiz formalari. Infinitiv, gerundiy va sifat-dosh.

Yordamchi so'z turkumlari. Artikl, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va modal so'zlar.

Sintaksis va uning o'rganadigan obyekti. Morfologiya va Sintaksis. Sintaktik strukturalar. Sintaksisda modellash tushunchasi. Gapni tahlil qilish metodlari. Grammatikaning turlari: an'anaviy grammatika, mantiqiy grammatika, strukturaviy grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi, transformatsion grammatika, generative grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika. O'rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqalar turlari; Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari. Murakkab tarkibli strukturalar. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funksional tahlili.

Gap. Gap tushunchasini aniqlash xaqidagi asosiy fikrlar. Gapni aniqlashda klassik yondashuv. Gap tasnifi. Gapning maqsadga ko'ra turlari: bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar. Gapda ellipsis tushunchasi. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarning farqi.

Gapning muloqot maqsadiga ko'ra va tuzilishiga ko'ra turlari. Gap – kommunikatsiya birligi sifatida, gapning vazifasi, tuzilishi. Asosiy va ikkinchi darajali bo'laklar. Ega. Eganing ifoda vositalari. Kesim - gapning asosiy belgisi sifatida. Modallik tushunchasi. Kesimning asosiy xususiyati. Modallik kategoriyasining ifoda usullari. So'z birikmasi. Birikma. xosil bo'lish omillari. So'z birikmasining strukturaviy – funksional tipologiyasi. So'z birikmasining komponentlari o'rtasidagi semantic munosabatlar. Gap bo'laklarining strukturaviy tiplari. Gap bo'laklari va so'z turkumlari o'rtasidagi munosabat. Predikativlik munosabatlarning o'ziga xos shakllariga ega bo'lgan gaplar. Qisqartirilgan sintaktik strukturaga ega bo'lgan gaplar. To'liqsiz gaplar. Atov gaplar. Polipredikativlik va murakkablashgan gaplar. Qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.

Roman - german tillari haqida umumiy ma'lumot. Roman va german tillarining hind-yevropa tillar oilasida tutgan o'rni. Hozirgi zamon roman va german tillari, ularning tarqalishi va tasnifi. Roman va German qabilalari haqidagi ma'lumotlar: (Piteas, Yuliy Sezar, Tatsit) roman va german qabilalarining tasnifi va "xalqlarning buyuk ko'chishi" davrida ularning joylashishi. Roman - german va roman tillarining o'ziga xos xususiyatlari: undoshlarning birinchi ko'chishi, Grimm qonuni, Verner qonuni, unlilarning o'zgarishi, otlarning turlanish tizimi, fe'llarning miqdor o'zgarishi va suffiksli fe'llarga ajralish tizimi, qadimgi alifbo, roman va german tillarining eng muhim yozma yodgorliklari va ularning tasnifi.

Tillar tarixini davrlashtirish muammosi. Yevropa qit'asida Kelt qabilalari. Rim qo'shinlarining Britaniya orollarini bosib olishi, Rimliklar qurgan tarixiy obidalar. Mintaqada g'arbiy german qabilalari va ularning Rim bilan aloqasi. Anglo-sakson, friz va yut qabilalarining Britaniya orollarini istilo qilishi va anglo – sakson davlatlarining yuzaga kelishi. Lotin tili va uning roman tillarining shakllanishidaagi o'rni va ahamiyati. Qadimgi alfavitlar va yozma yodgorliklar Nemis tilining paydo bo'lish tarixi. Roman-german tillari tovush tizimining tarixiy qonuniyatlari; palatallashuv. Sonor undosh birikmalari oldida unlilarning cho'zilishi, keyingi undoshning tushib qolishi natijasida unlilarning cho'zilishi. Undoshlarning birinchi va ikkinchi ko'chishi

Morfologiya. Roman-german tillari morfologiyasi. Otning grammatik kategoriyalari: rod, son, kelishik. Negiz asosida otlarning qadimgi tasnifi. Otlarda ko'plik shakllarining hosil bo'lishi va ularning turlari. So'zning morfologik strukturasi. Ichki fleksiya yordamida o'zakdagi unlining o'zgarishi. Tashqi fleksiya. Fleksiyasiz tovush almashinishi.

Qadimgi german va roman tillarida sifat, olmosh va son Sifatning ikki xil turlanishi: kuchli va kuchsiz turlanish, turlanishlarning paydo bo'lishi. Kishilik olmoshlari, olmoshlarda grammatik kategoriyalar: shaxs, son (ikkilik sonining mavjudligi). Ko'rsatish olmoshlarning paydo bo'lishi. Sanoq sonlar. Tartib sonlar.

Qadimgi roman-german davrida fe'l. Kuchli va kuchsiz fe'llar. Preterit – prezent fe'llar va ularning morfologik xususiyatlari. Suppletiv fe'llar. Fe'llarning asosiy Grammatik kategoriyalari: shaxs, son, zamon, mayl. Fe'lning analitik shakli masalasi: Nisbat kategoriyasi.

6-mavzu. Qadimgi roman va german tillarida sintaksis. Sintaksis. Gap turlari. So'roq gaplarda so'z tartibi. Gapda bosh bo'laklarning ifoda etilishi. Sodda gapda sintaktik aloqalarning ifodalanishi. Kelishiklarning vazifalari.

Qadimgi roman- german tillari lug'at boyligi. Roman-german tillari lug'at tarkibi va ularning taraqqiyoti. Lug'at tarkibining xususiyatlari. Umum hind – yevropa va umum roman va german so'zlari, lug'at tarkibining boyib borishi va uning turli yo'llari: Affikslar yordamida so'zlar yasash. So'z yasash jarayonining mahsuldor va kam mahsullik xususiyatlarini aks ettiruvchi affikslar; Qo'shma so'zlar. qo'shma so'zlarni hosil qilish yo'llari. Tovush almashishi (umlaut); Eski so'zlarning yangi ma'noga ega bo'lishi. O'zlashtirma so'zlarning ishlatilishi.

“O‘RGANILAYOTGAN TIL NAZARIY ASPEKTLARI” FANIDAN SAVOLLAR

1. The role of theoretical grammar in linguistic studies.
2. The difference between theoretical and practical grammar.
3. Morphemes and their classification in English.
4. Word-formation processes in English and Uzbek: a comparative study.
5. The category of number in modern English.
6. The category of case: historical development and present state.
7. Gender distinctions in English: past and present.
8. The category of tense: absolute vs. relative tense.
9. Aspect in English verbs: perfective and progressive forms.
10. Mood and modality: expressing reality and unreality.
11. Modal verbs in English: semantic and pragmatic functions.
12. Active and passive voice: usage and stylistic value.
13. Infinitives, gerunds, and participles in English syntax.
14. Functions of non-finite verb forms in academic writing.
15. Simple, compound, and complex sentences in English.
16. Subordination of clauses: types and functions.
17. Coordination in compound sentences.
18. Transformational grammar: basic principles and examples.
19. Functional sentence perspective: theme and rheme.
20. Word order in English: communicative functions.
21. Inversion in English: grammatical and stylistic features.
22. Ellipsis and substitution as cohesive devices.
23. The role of grammar in discourse analysis.
24. Pragmatic aspects of grammar in everyday communication.
25. Politeness strategies and grammar in English.
26. Corpus-based grammar: principles and applications.
27. Cognitive approaches to grammar: meaning and usage.
28. Functional grammar: form, meaning, and function.
29. Comparative grammar of English and Uzbek.
30. Modern trends in English grammar research.

31. The evolution of English grammar from Old English to Modern English.
32. The category of determination in English noun phrases.
33. Articles in English: grammar and usage.
34. Quantifiers and determiners in English grammar.
35. Pronouns and their syntactic functions in English.
36. Personal, reflexive, and emphatic pronouns: comparative analysis.
37. Demonstrative pronouns in English and Uzbek.
38. Relative pronouns and their functions in complex sentences.
39. Interrogative pronouns and question formation.
40. Indefinite pronouns: semantic and syntactic features.
41. Prepositions in English: classification and usage.
42. Prepositional phrases as syntactic units.
43. Conjunctions: coordinating vs. subordinating functions.
44. Discourse markers and their grammatical role.
45. Adjectives in English: degrees of comparison.
46. Attributive vs. predicative functions of adjectives.
47. Adverbs in English: types and functions.
48. Adverbs of manner, place, and time in discourse.
49. Comparison of adjectives and adverbs in English grammar.
50. Word classes in English: traditional vs. modern classification.
51. The Norman Conquest and Its Linguistic Consequences
52. Loanwords from Norman French into English
53. Orthography in Middle English Manuscripts
54. Phonetic Shifts during the Middle English Period
55. Early Modern English Period: General Characteristics
56. The Great Vowel Shift: Causes and Effects
57. Changes in Spelling and Pronunciation in Early Modern English
58. Morphological Simplification in Early Modern English
59. Syntax in Early Modern English
60. The Rise of Standard English
61. The Role of Printing Press in the Standardization of English
62. Shakespeare's Influence on English Vocabulary and Style
63. Translations of the Bible and Their Impact on English
64. Neologisms in Early Modern English
65. Phonological Developments in Early Modern English
66. Grammatical Changes in Early Modern English
67. English Dialects in the Early Modern Period
68. The Rise of American English
69. The Development of Canadian English
70. The Growth of Australian and New Zealand English
71. Indian English: Historical Development and Features
72. English as a Global Language
73. World Englishes: Theoretical Perspectives
74. Slang and Informal English in the Modern Period
75. Influence of Science and Technology on English Vocabulary

“O‘RGANILAYOTGAN TIL NAZARIY ASPEKTLARI” FANIDAN ADABIYOTLAR

Asosiy darslik va o‘quv qo‘lanmalar

1. Антрушина Г.Б. Лексикология английского языка. Москва.: “Дрофа”, 2006
2. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of Literary text. Tashkent.: “Turon-Iqbol”, 2016
3. Blokh M.Y. Theoretical Grammar of the English Language. M, 2004
4. Eastwood J. Oxford guide to English grammar. Oxford, OUP, 2002.
5. Galperin I.R. Stylistics. M.: Higher School, 2000.
6. Hogg R. Cambridge History of the English language, Volume I, 2005.
7. Iriskulov M., Kuldashev A. Theoretical Grammar of the English Language. T.2020
8. Muminov O.M. Lexicology of the English language. T, 2006.
9. Nino Kirkavialidze. Theoretical Course of English Grammar. Tbilisi, 2013
10. Peter Roach “English phonetics and phonology” Camb.Univ. press, 2000, 2 nd edition
11. Rastorguyeva T. A. “A history of the English language”. M.: Vados, 2003.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekistan, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Demokratii isloxlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish - barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so‘zi. 2016 yil 2 noyabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so‘zi 8 dekabr 2016 yil. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak // Xalq so‘zi 15 yanvar 2017 yil. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruzasi.
5. Radford, A. (2022). An introduction to English sentence structure (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Arnold I.V. The English Word. Москва, 1986
7. Арсеньева А.А и др. Введение в германскую филологию. Москва. 1983
8. Downing A., Locke F. English Grammar. A University Course. Routledge, 2006, 640 p
9. Гинзбург. Р.З., Хидекел С.С., Князева Г.Ю., Санкин А.А. A course in Modern English Lexicology. Москва, 1979
10. Hogg R. An Introduction to Old English. Edinburgh University Press, 2002, 174p
11. Ильиш.Б.А. “История английского языка”.-М., 1983 (инглиз тилида).
12. Ильиш Б.А. Structure of Modern English.-М., 1975
13. Kunin G. Historical changes and English word-formation: New vocabulary items.- N.Y., 1986
14. Кухаренко В.А. Seminars in style.- М.: Высшая школа, 1971.
15. Кухаренко В.А. Практикум по стилистике английского языка. М.: Высшая школа, 1986.

Elektron ta‘lim resurslari:

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. www.jdpu.uz
4. www.edu.uz
5. unilibrary.uz

2. “MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI” FANI

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda chet tilini o‘qitish metodikasi fanining mazmuni, predmeti va metodi O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini modernizatsiyalash doirasida chet tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish. Chet tillar bo‘yicha milliy va xalqaro standartlar. Mahalliy va xorijiy dasturlar. Chet tili o‘qituvchisining professional kasbiy salohiyati. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini modernizatsiyalash doirasida chet tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimining barcha bosqichlari uchun chet tillar bo‘yicha davlat ta‘lim standartlarining qabul qilinganligi. Til ta‘limida chet tilini bilish darajasi tizimi. Xalqaro sertifikatsiyalash imtihonlarining xorijiy standartlari va talablari. Turli xildagi ta‘lim muassasalari uchun chet tillari bo‘yicha dasturlarga qo‘yiladigan talablar. Chet tili o‘qituvchisining asosiy malakaviy talablari. Chet tili o‘qituvchisining kasbiy mahoratini shakllantirish shartlari va yo‘llari.

Til aspektlari. Leksika, grammatika va talaffuzga o‘rgatishning maqsad, vazifalari va unga xos malakalami shakllantirishning ahamiyati.

Nutq turlari. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish va ularning chet tilini amaliy jihatdan o‘rganish jarayonida tutgan o‘rni,

Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozishni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy mexanizmlari, o‘rgatish bosqichlari, o‘rgatish texnologiyasi va uni nazorat qilish. Til o‘qitish jarayonini rejalashtirish.

O‘quv jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish.

Mazmun bo‘yicha rejalar: kalendar tematik reja; dars reja.

Darsning maqsadi va tarkibi.

Bilim, ko‘nikma, malakalarni baholash va nazorat qilishning zamonaviy texnologiyasi.

Nazorat turi, shakli va funksiyasi.

Kommunikativ kompetentsiyani shakllanish darajasini nazorat qilish.

Test turlari.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda chet tilini o‘qitish metodikasi fanining nazariy asoslari. Chet tili o‘qituvchisining tayyorgarligi, lingvistik, pedagogik, psixologik, metodik, ma‘naviy- ma‘rifiy, lingvokulturologik qismlardan iborat. Chet til o‘qitishni zamonaviy texnologiyalarining tilshunoslik asoslari. Chet tili o‘qitishni zamonaviy texnologiyalarining o‘rni.

Chet tili zamonaviy texnologiyalarining predmeti. Chet tili zamonaviy texnologiyalari kursining vazifasi bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qituvchilikka tayyorlashdir. Chet tili zamonaviy texnologiyalari chet tili o‘qitish haqidagi fandir. Chet tili zamonaviy texnologiyalarining o‘qitish metodikasi pedagogika fanlari tizimiga taalluqli Chet tili zamonaviy texnologiyalarini o‘qitishda qo‘llanadigan ilmiy tadqiqot metodlari: respublikamiz va chet el mamlakatlari tajribasini o‘rganish, turli tipdagi o‘quv yurtlarida til o‘qitishda ishlatiladigan til o‘qitish zamonaviy texnologiyalarini o‘rganish tajribalarini o‘rgatish, kuzatish. Asosiy metodik tushunchalar: yondashish, metod, tamoyil (prinsip), usul, vosita, o‘qitish tizimi. Metod, usul, metodik usul va

vositalarning ta'lim maqsad va bosqichlariga bog'liqligi. Mashq chet tili o'rgatishning asosiy komponentidir. O'quv jarayonida nutq faoliyati turlarining nisbati.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda chet tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Chet til o'qitishni zamonaviy texnologiyalarining tilshunoslik asoslari. Til va nutq. Ularning farqi. Chet tili o'qitishni zamonaviy texnologiyalarining o'rni. Modellastirishning ahamiyati. "Model", "namuna gap" va "nutq namunasi" tushunchalari. Nutq namunasi – og'zaki nutqni o'rgatishning asosiy birligi. Chet tili o'qitishni zamonaviy texnologiyalarining psixologik asoslari. Nutqning psixologik tavsifi: og'zaki va yozma nutq, tashqi va ichki nutq, reproduktiv va retseptiv nutq. Chet tili zamonaviy texnologiyalarining o'qitishda tafakkur, xotira, idrok, qiziqish, "bilim", "ko'nikma" va "malaka" tushunchalari. Ularni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.

Ingliz tili o'qitish zamonaviy texnologiyalarining psixolingvistik asoslari. Nutq, nutq mexanizmlari, nutqning paydo bo'lish bosqichlariga oid gipotetik nazariyalar, axborotni qabul qilish bosqichlari tarbiya tamoyillari, tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish usullari. Chet tili o'qitishni zamonaviy texnologiyalarining pedagogik asoslari. "Chet tili zamonaviy texnologiyalari" fanining o'quv yurtida o'qitiladigan predmetlar orasida egallagan o'rni. Chet tili zamonaviy texnologiyalarini o'qitishda didaktik tamoyillarning tatbig'i.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda chet tilini o'qitish metodikasi fanining maqsadlari, mazmuni, tamoyil va metodlari. Chet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalarining amaliy, umum-ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari. Maqsadlarning bir-birlari bilan o'zaro bog'liqligi. O'quvchi va talabalarga boshqalar fikrini tinglab tushunish, o'qib ma'lumot olish va fikrini og'zaki va yozma bayon etishni o'rgatish.

Kommunikativ maqsad: Chet tili o'qitish zamonaviy texnologiyalarining ma'lumotni o'zgaga berish va uni o'zgalardan qabul qilish. Tildan ta'lim berish, o'quvchi yoki talabalar tafakkurini yanada o'stirish, ona tilini yaxshiroq anglab olish, chet zamonaviy texnologiyalarning xususiyati haqida yangi bilimlarni egallash.

Umumta'limiy maqsad: Chet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalarining tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati, adabiyoti, anhanalari va urf-odatlarini o'rganish asosida o'quvchi va talabalarning umumiy va lingvistik dunyoqarashini kengaytirish.

Tarbiyaviy maqsad: Chet tili o'qitish o'quvchi va talabalarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash. Ularga axloqiy va estetik tarbiya berish metod va vazifalari.

Rivojlantiruvchi maqsad: Chet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari o'quvchi va talabalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishini, ularning dunyoqarashini, estetik didini, mustaqil fikrlashini, mehnat qilish madaniyatini, mustaqil bilim olishning ko'nikma va malakalarini shakllantirish usullari. Rivojlantiruvchi maqsadning o'quvchi, talaba shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion (ichki turtki) xususiyatlarini rivojlantirish usullari.

Chet tili o'qitish mazmuni. "O'qitish mazmuni" tushunchasi. Chet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari mazmuni haqida turli fikrlar. Chet tili o'qitish mazmunining tarkibiy qismi.

Ta'lim tamoyillari. "Ta'lim tamoyili tushunchasi". Pedagogik, psixologik, metodik tamoyillar. Chet tili o'qitish metodikasida pedagogik, psixologik tamoyillarning tatbig'i. Metodik tamoyillar: umumiy, xususiy va maxsus tamoyillar.

Ta'lim metodi tushunchasi. Ta'lim metodi tanlashning quyidagi omillarga bog'liqligi: ta'lim maqsadlari va mavzuni o'quvchi va talabalarga chet tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish.

Ingliz tili grammatikasini o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni, innovatsion ta'limni qo'llash. Grammatika va unga xos malakalarni shakllantirishning ahamiyati. Tillararo va ma'lum bir til ichidagi interferensiya hodisasi va grammatik xatolar tipologiyasi.

Ingliz tili o'qitish darslarida grammatik o'yinlardan foydalanish vazifalari. Bir tilli kommunikativ muloqot jarayonida qo'llaniladigan grammatik malakalarning shakllanish darajasini nazorat qilish usullari. Grammatikani o'rgatishga nisbatan xorijiy tajribalarga asoslangan holda implitsit, eksplitsit va differensial yondashuv mohiyati. Chet tili o'qitishning turli bosqichlarida grammatik malakalarni rivojlantirishga qo'yilgan CEFR talablari. Chet tili leksikasini o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni, innovatsion ta'limni qo'llash.

Leksik malakalarning bir tilli kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli. So'zlarning shakli, ma'nosi va qo'llanilishiga doir qiyinchiliklar. So'zlarga xos konnotativ xususiyatlar va so'z ma'nosini ifodalovchi muqobili berilmaydigan leksika. Leksik birliklar bilan tanishish va ularning murakkablik darajasini inobatga olgan holda tanlash usullari. Leksik ko'nikma va malakalar hamda ularning shakllanishidagi so'zga xos paradigmatic va sintagmatic aloqalar. So'zlar o'rtasidagi turli xil aloqalarga asoslangan mashqlar sistemasi. Semantik maydon va uning dinamikasini aniqlovchi faktorlar. Leksik o'yinlar va ularning chet tilini o'qitish darslarida tutgan o'rni. Leksik malakalarni shakllantirish darajalarini nazorat qilish. Ta'limning turli bosqichlarida leksik mukammallikka nisbatan qo'yilgan CEFR talablari.

Gapirishni o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni, innovatsion ta'limni qo'llash. Nutq va muloqot shakllari. Nutqni hosil qilish shartlari. Ta'limdagi real, shartli va muammoli vaziyatlar hamda ularni darsga joriy etish usullari. Monolog, dialog va poliloglarning umumiy tavsifi hamda ularning xilma-xilligi. Gapirishga o'rgatishning "yuqoridan quyiga" (matn asosida) va "quyidan yuqoriga" (matnga asoslanmagan holda) strukturasiga asoslangan usullari. Chet tillarni o'qitishning xorijiy tajribalariga asoslangan o'qishga o'rgatishni shakllantirish va uni nazorat qilish. Chet tili o'qitishning turli bosqichlarida gapirishni rivojlantirishga qo'yilgan CEFR talablari.

O'qishni o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni, innovatsion ta'limni qo'llash. O'qish chet tili ta'limining maqsad va vositasi sifatida. O'qishga o'rgatish bosqichlari. Ta'limning turli bosqichlarida ovoz chiqarib o'qish va ichida o'qishning o'zaro muvofiqligi. O'qish turlari va ularni shakllantirishga xos mashqlar sistemasi. Matn va u bilan ishlash sistemasi. Chet tillarni o'qitishning xorijiy tajribalariga asoslangan gapirishga o'rgatishni shakllantirish va uni nazorat qilish. Ingliz tili o'qitishning turli bosqichlarida o'qishni rivojlantirishga qo'yilgan CEFR talablari.

Yozuvni o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni, innovatsion ta'limni qo'llash. Yozuv va yozma nutq. Yozishga o'rgatishning maqsad va vazifalari. Yozma nutqqa o'rgatish texnologiyasi. Chet tillarni o'qitishning xorijiy tajribalariga asoslangan yozuvga o'rgatishni shakllantirish va uni nazorat qilish. Chet tili o'qitishning turli bosqichlarida grafika, orfografiya, punktuatsiya va yozma nutq malakalarini rivojlantirishga qo'yilgan CEFR talablari.

2. "MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI" FANIDAN SAVOLLAR

1. Ingliz tilini o'qitish metodikasining asoslari
2. Til o'qitishning maqsadlari va vazifalari
3. O'qitishda yordamchi vositalarning turlari
4. Ingliz tilini o'qitish metodlari va tamoyillari
5. Xalqaro til standartlari va baholash mezonlari

6. Chet tilini o'qitishning tarixiy bosqichlari
7. Muqobil yondashuvlar: CLIL, TBL, PBL
8. Lug'at o'rgatish strategiyalari
9. Grammatika o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari
10. Talaffuzni o'rgatish usullari
11. Tinglab tushunishni rivojlantirish metodlari
12. So'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish
13. O'qish ko'nikmalarini shakllantirish
14. Yozma nutqni rivojlantirish bosqichlari
15. Til ko'nikmalarini baholash usullari
16. O'quv materiallarini yaratish va moslashtirish
17. Darslik va qo'shimcha resurslarni tahlil qilish
18. Dars rejalashtirish asoslari
19. Sinf boshqaruvi va muloqot madaniyati
20. Turli darajadagi talabalarni o'qitish
21. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish
22. Chet tilini maktab va oliy ta'limda o'qitish
23. Axborot texnologiyalarini til o'qitishda qo'llash
24. O'qituvchi kompetensiyalari va kasbiy rivojlanishi
25. Xatolarni tuzatish va samarali feedback berish

2. "MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI" FANIDAN ADABIYOTLAR

Asosiy darslik va o'quv qo'lanmalar

1. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov SH.S.. English language Teaching Methodology (theory and practice). - Tashkent: "Fan va texnologiya", 2019. -336 b.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi- T.: 2018.
3. Jalolov J., Makhkamova G. Ingliz tili o'rgatish texnologiyasi: Pedagogika kasb-hunar kolledjlari uchun o'quv-metodik qo'llanma. -T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2023
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent : "O'zbekiston", 2017.-488 b. (1-jild).
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent: "O'zbekiston", 2018,-508 b. (2-jild).
4. Axmedova L.T., Normuratova V.I. Teaching English Practicum / Практикум по методике преподавания английского языка - T.: 2011.
5. Harmer, J. (2007). How to Teach English: An Introduction to the Practice of English Language Teaching (2nd Edition) Longman ELT. 288 p.
6. Jalolov J.J. Chet til metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2002. -432 b.
7. Makhkamova G.T., Alimov Ah.S., Ziyaev A.L. Innovative pedagogical technologies in the English language teaching: Учебник для студентов факультетов английского языка. - Ташкент: Фан ва технология, 2017. 231 с.
8. Nunan, D. Language Teaching Methodology. - Prentice Hall, 2001.

Axborot manbalari

1. <http://www.president.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. www.jdpu.uz
5. www.edu.uz
6. unilibrary.uz

3. “O‘QISH VA YOZUV AMALIYOTI” FANI

Matn turlari (original matnlar). Taomnomalar, retseptlar; jadvallar, shakllar; kichik hikoyalar; goroskoplar; shaxsiy xatlar; kundaliklar; informatsion bukletlar, broshyuralar, (filmlar, ko‘rgazma va hokazolar.), sayyohlik yo‘riqnomalari; jurnal maqolalari (mashhur shaxslar bilan suhbatlar, goroskoplar); yangiliklar bayoni; tanish mavzularga oid qisqa gazeta maqolalari; she‘rlar; internet matnlari (bloglar); e‘lonlar (grantlar, sayohat manzillari hakida); yo‘riqnomalar (texnik vositalar, asboblari uchun); ensiklopedik maqolalar.

O‘qish strategiyalarni rivojlantirish: asosiy fikrlarni anglash\bilish uchun o‘qish; g‘oyani bilish uchun o‘qish; maxsus ma‘lumotni olish uchun o‘qish; so‘zlarning kontekstdagi ma‘nosini topish; diqqat bilan o‘qish; ko‘z yugurtirib o‘qish; tez o‘qish.

Matn turlari (imkon darajasida autentik, original matnlar, kasbga yo‘naltirilgan materiallar). Gazeta va jurnallardagi maqolalar (yangiliklar, ma‘ruzalar, katta hajmdagi maqolalar, xalqaro ilmiy jurnallarda o‘rganilayotgan chet tilida chop etilgan maqolalar); tahlil bayon etilgan qisqa ma‘lumotlar; asarlardan keltirilgan parchalar; internet matnlari (bloglar, veb saytlar); qo‘llanmalar, instruksiyalar (texnik vosita va asboblari uchun); ensiklopedik maqolalar; professional mavzulardagi maqolalar (chet tili o‘qitish, o‘qitish muammolari, metodlari, o‘qitish tizimidagi yangiliklar yoritiladigan jurnallarda berilgan maqolalar); ma‘ruzalarda keltirib o‘tilgan g‘oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan hisobotlar

O‘qish maqsadlari: ekstensiv o‘qish (badiiy o‘qish); intensiv o‘qish (ma‘lumot uchun o‘qish, tushunish uchun o‘qish); tayyorlangan dars rejalariining muayyan kontekstga muvofiqligini baholash; ma‘lum kontekst uchun dars rejasini tuzish.

Faktlar asosida yozish: bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, ta‘lim jarayoniga oid muammolar va b.). Insholar: tasviriy; hikoya tarzidagi; qiyosiy; tahliliy (sabab va natijalarni tahlil qilish); kitob yoki filmlarning qisqa taqrizi; universitet gazetasi uchun maqola.

Xatlar va boshqa muloqot hujjatlari: turli maqsadlardagi xatlar; rasmiy va norasmiy xatlar; yozma tanqidiy, rad javobi (masalan, biznesdagi hamkoriga), norasmiyelektron xatlar.

Faktlarga asoslangan yozma nutq: hisobotlar (uchrashuv hisobotlari, tashrif hisobotlari); tadqiqot hisobotlari; yaxshi va yomon tomonlarini baholash va tahliliy hisobot

Insholar: fikr bildiruvchi insho; “qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi” insho, bahs munozarali insho turi, tanqidiy bayonlar; voqea-hodisalar sharhi; maqola sharhi.

3. “O‘QISH VA YOZUV AMALIYOTI” FANIDAN SAVOLLAR

1. Gazeta va jurnallardagi maqolalar (yangiliklar, ma‘ruzalar, katta hajmdagi maqolalar, xalqaro ilmiy jurnallarda o‘rganilayotgan chet tilida chop etilgan maqolalar);
2. Tahlil bayon etilgan qisqa ma‘lumotlar;

3. Asarlardan keltirilgan parchalar;
4. Internet matnlari (bloglar, vebsaytlar);
5. Qo‘llanmalar, instruksiyalar (texnik vosita va asboblari uchun);
6. Ensiklopedik maqolalar;
7. Professional mavzulardagi maqolalar (chet tili o‘qitish, o‘qitish muammolari, metodlari, o‘qitish tizimidagi yangiliklar yoritiladigan jurnallarda berilgan maqolalar);
8. Ma’ruzalarda keltirib o‘tilgan g‘oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan hisobotlar;
9. Fikr bildiruvchi insho;
10. “Qarshi yoki qarshi emaslik fikrini bayon etuvchi” insho,
11. Bahs munozarali insho turi, tanqidiy bayonlar;
12. Voqea-hodisalar sharhi;
13. Maqola sharhi.

“O‘QISH VA YOZUV AMALIYOTI” FANIDAN ADABIYOTLAR

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. David Bohlke, Dorothy E.Zemach (2013) Skillful 1. Reading and writing. Macmillan.
2. Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E.Zemach (2012) Skillful 2 ba 3. Reading and writing. Macmillan.
3. Skillful 4. .Reading and writing. Macmillan.
4. Scarry, S., & Scarry, J. The Writer’s Workplace with Readings: Building College Writing Skills. Thomson Learning. Sixth Edition. 2010.
5. Virginia Evans (2000) Successful writing upper-intermediate. Express publisher.
6. Virginia Evans (2000) Successful writing proficiency. Express publisher
7. Nunan D. (2010) Research methods in Language Learning. Cambridge University Press.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» -T.:«Sharq», 1998.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Driscoll, L. (2004), Reading Extra A resource book of multi-level skills activities. CUP.
5. Fry, E. B. (2000), Skimming and scanning Pre-intermediate. Jamestown Publishers.
6. Greenall, S. & D. Pye (2007), Reading 1, Cambridge Skills for Fluency. Cambridge: CUP.
7. Newspapers and magazines (e.g. English Teaching professional, Modern English Teacher Uzbekistan Today, The Economist, The New Scientist, National Geographicetc)
5. British Council. (2016) English for Academics 1 and 2nd. British Council.

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.tsil.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.ziynet.uz>

6. www.jdpu.uz

7. www.edu.uz

4. "NUTQ MALAKALARI INTEGRATSIYASI" FANI

Tinglash uchun mo'ljallangan matn turlari: dialoglar, suhbatlar; telefon orqali muloqot; jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, aeroportdagi e'lonlar); ko'rsatmalar, yo'riqnomalar (masalan, auditoriyadagi o'qituvchining ko'rsatmalari, ovqat tayerlash); velosipedni (texnika vositalarini) ta'mirlash singari oson ko'rsatmalar); tele va radio xabarlar, ob-havo ma'lumotlari; monologlar (masalan, prezentatsiyalar, nutqlar); tele va radio hujjatli filmlar; badiiy filmlar; qo'shiqlar, audio kitoblar va h.k.

Tinglash uchun mo'ljallangan matn turlari: suhbat, dialoglar; telefonda suhbat; jamoat joylaridagi e'lonlar (masalan, vokzal/aeroport e'lonlari); televideniye va radio orqali beriladigan yangiliklar; tele va radio dasturlar (tok-shou, hujjatli filmlar); o'qish va kasbga oid mavzularda prezentatsiyalar, nutqlar, ma'ruzalar; badiiy filmlar; intervyular; qo'shiqlar; audio kitoblar

Og'zaki muloqot(dialog) bo'yicha: turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim so'rash, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va h.k.) ni to'g'ri o'zlashtirishi; o'ziga yoqqan va yoqmagan narsalar, jihatlar haqida fikrini bayon etishi; o'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni bera olishi; so'zlovchi nutqini tushunganligi yoki yaxshi anglay olmaganligini ifodalashi (masalan, so'zlovchidan gapini yana bir marta takrorlashni, izohlash, savol berish va h.); muloqotni davom ettira olish; intervyu olish va savollarga javob qaytarish; tanish mavzularda muhokamalarda qatnashishi; navbat bilan muloqotga kirishishi, so'zlovchining nutqini bo'lmasligi yoki bo'lishga to'g'ri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi; muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi; jummalarni perifriza qilish va qaytadan ta'kidlashi; og'zaki muloqotda tegishli milliy-madaniy me'yorlarni (masalan, iltimos va rahmat so'zlarining turli madaniyatlarda ishlatilishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni to'g'ri qo'llashi; muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh iring'ashi) o'rinli foydalanishi. Talaffuzga normalari: intonatsiya (intonatsiyaning grammatik va munosabat bildiruvchi funksiyalarini farqlash), urg'u (so'z urg'usi, gap urg'usi), tovushlarni transkripsiyalar orqali o'qiy olishi; ona tili interferensiyasi.

Dialog: o'qish va kasbga oid mavzulardagi dialoglarda ishtirok etib, ma'lumot almashish; tegishli intonatsiya va urg'udan foydalanib hissiyotlarini ifoda eta olish; turli mavzularda davomiy dialogga kirishish; avvaldan tayyorlangan holda intervyu olib borish, ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlash, qiziqarli javoblarga e'tibor qaratish; muhokamalarda tegishli izohlar, argumentlar va sharhlar bergan holda o'z fikrini bayon qilish va uni himoya qilish;

Monolog: o'z qiziqishlariga oid mavzularda batafsil hisobotlar; yangiliklar, intervyu yoki hujjatli filmlardan parchalar mazmunini qisqacha bayon etish; rasmiy vaziyatlarda dolzarb mavzular bo'yicha o'z nuqtayi nazarini ifoda etish; debatlarida asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etish;

4. "NUTQ MALAKALARI INTEGRATSIYASI" FANIDAN SAVOLLAR

1. O'zbekiston va dunyo
2. Kasb-kor va ishbilarmonlik
3. Atrof-muhit muhofazasi

4. Munosabatlar
5. Turli madaniyatlararo muloqot
6. Ommaviy axborot vositalari
7. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasida etika
8. Ijtimoiy tarmoqlar
9. Ijtimoiy masalalar
10. Madaniyat va san'at
11. Shaxs va shaxsiyat
12. O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarda milliy ramzlar, davlat tuzilishi
13. Oziq-ovqat
14. Sihat-salomatlik
15. Oilaviy qadriyatlar
16. Shahar va qishloq hayoti
17. Aloqa va axborot texnologiyalari

“NUTQ MALAKALARI INTEGRATSIYASI” FANIDAN ADABIYOTLAR

Asosiy darslik va o'quv qo'lanmalar

1. Virgina Evans & Jenny Dooley. Enterprise (full set) Digital publishing UK, 2009.
2. Emma and Garry Pathare (2015) Headway Academic Skills 2 and 3. (Listening, Speaking and Study Skills). Oxford.
3. Philpot S. (2016) Headway Academic Skills 2 and 3. (Reading, Writing and Study Skills). Oxford.
4. Mike Boyle, Ellen Kisslinger (2013) Skillful. Listening & Speaking (full set) Macmillan Education UK
5. Mickey Rogers, Joanne Taylore-Knowles, Steve Taylore-Knowles. Open Mind. Intermediate. Macmillan Education, 2014
6. Mickey Rogers, Joanne Taylore-Knowles, Steve Taylore-Knowles. Open Mind. Upper Intermediate. Macmillan Education, 2015

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» -T.:«Sharq», 1998.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Driscoll, L. (2004), Reading Extra A resource book of multi-level skills activities. CUP.
5. Platform (online & outline) Macmillan English Campus Platform (online & outline) Macmillan Education UK, 2015.
6. Oxeden C., Latham. (2008) New English Files. Oxford University Press. Upper intermediate

BAHOLASH MEZONI

I. 60112600 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (tillar bo'yicha) ta'limi yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlaridan Davlat attestatsiyasini yozma shaklda o'tkazish tartibi va baholash mezonlari.

Har bir til ko'nikmasi bo'yicha test sinovlari tavsifi.

1. Majburiy fanlaridan nazariy test sinovlarining maqsadi bitiruvchi talabaning o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur nazariy bilimlarni qay darajada egallaganligini aniqlashdan iborat (Ingliz tili nazariy kursi, Ingliz tili o'qitish metodikasi fanlari asosida).

2. Tinglab tushunish ko'nikmasining maqsadi:

- Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha (CEFR) C1 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining og'zaki matnni tinglab tushuna olishini tekshirish;
- o'z sohasi va sohasidan tashqari bo'lgan abstrakt va aniq mavzulardagi og'zaki nutqni notanish aksentda so'zlanganda ham tushuna olishi, ma'lumotlarni farqlay olishi va aniqlik kirita olishi; turli janrdagi, rasmiy va og'zaki nutqni, idiomatik iboralarini ajrata olishi va tushuna olishi;
- kengaytirilgan hajmdagi nutqni gapiruvchilar va ular o'rtasidagi munosabat faqat nazarda tutilgan, ya'ni ochiq ishora etilmagan bo'lsa ham tushuna olishi;
- murakkab, notanish mavzular muhokamasini va munozara mazmunini osonlik bilan tushuna olishi;
- ko'pgina ma'ruzalar, bahs va munozaralarni tushuna olishi;
- noaniq, eshitish qiyin bo'lgan, masalan, poezd stansiyalari, stadion kabi joylardagi e'lonlarni tushuna olishi;
- murakkab texnik ko'rsatmalar, mahsulotlar va xizmatlar ta'rifini tushuna olishi;
- diskka yozib olingan audio yozuvlarni tushuna olishi va so'zlovchilar o'rtasidagi muammo, munosabatlarni aniqlay olishi;
- kontekstdan kelib chiqib, grammatik va leksik bilimlarga tayangan holda so'zlashuvchilarning maqsadlarini va keyingi aytilishi mumkin bo'lgan masalalarni taxmin qila olishi talab etiladi.

2. O'qish ko'nikmasi bo'limining maqsadi:

- ko'nikmasi bo'yicha (CEFR) C1 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining yozma matnni tushuna olishini tekshirish;
- abstrakt va murakkab mavzulardagi suhbat ma'nosini tushuna olishi;
- ijtimoiy sohada va sayohat davomida turli murakkablik darajasidagi jurnal va gazeta maqolalarini tushuna olishi;
- ish joyida yoma ko'rsatmalarga amal qila olishi hamda murakkab tushunchalardan va terminlardan holi bo'lgan, o'z kundalik sohalariga oid matn va hisobotlarni o'qib tushuna olishi;
- turli idiomatik va og'zaki nutq iboralarini audio matnda eshitib tushuna olishi talab etiladi. Talabalardan test davomida quyidagi o'qish ko'nikmalari va strategiyalarni qo'llash talab etiladi:
- matnning umumiy ma'nosini tushunish uchun o'qish
- matndagi muayyan detallarni topish uchun o'qish;
- matndagi asosiy ma'nolar va ularni yorituvchi dalillarni topish uchun o'qish;
- berilayotgan taklif yoki ma'noni anglash uchun o'qish;
- berilgan ma'lum bir so'zning ma'nosini aniqlash uchun o'qish.

Turli diskurs bilan ishlash maqsadida berilgan matnlar, jumladan tasvirlash, hikoya qilish, solishtirish, tahlil etishga asoslangan matnlar original manbalardan, autentik holatda ishlatiladi.

3. Yozish ko'nikmasi bo'limi maqsadi:

- Yozish ko'nikmasi bo'yicha UYK (CEFR) C1 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining matn turlarini yoza olish ko'nikmasini tekshirish

- ijtimoiy sohada va sayohat davomida turli murakkablik darajasidagi shaxsiy va qisman shaxsiy xatlarni, jumladan gazeta tahririyatiga xat kabilarni yoza olishi; turli maqsadga yo'naltirilgan xat turlarini jumladan, ariza, shikoyat xati, iltimosnoma, ilova xatlar kabilarni yoza olishi;
 - ish joylarida kundalik hayotga doir oldi-sotdi va xizmatlar bilan bog'liq yozishuvlarni bajara olishi.
 - alohida diplomatik va nozik vaziyatlarni talab etuvchi iltimosnomalarni yozishda qo'shimcha yordam yoki resurslardan foydalangan holda yoza olishi;
 - juda murakkab va abstrakt mavzularda diktant, xat va yozishmalarni yoza olishi;
 - ta'limda ma'ruzalardan konspekt tayyorlay olishi, turli akademik yozma topshiriqlarni yoza olishi va turli manbalardan ma'lumotlarni jamlagan holda grammatik, leksik va uslubiy xatolarga deyarli yo'l qo'yilmagan insho yoza olishi.
4. Yozish ko'nikmasi bitta topshiriqdan iborat:
- Topshiriq insho bo'lib, unda mulohaza (Argumentative) insho turi beriladi: berilgan mavzuni dalilga asoslangan holda hamda fikr va munosabatni bildirish orqali yoritish talab qilinadi.
5. Gapirish ko'nikmasi (intervyu) bo'limining maqsadlari:
- Gapirish ko'nikmasi bo'yicha test topshiruvchining UYK (CEFR) C1 darajasigacha muloqot qila olish ko'nikmasini tekshirish;
 - turli maqsadlarda tilni og'zaki muloqot uchun qo'llay olishi;
 - tilda grammatik va leksik bilimlardan hamda og'zaki muloqotning turli strategiyalaridan samarali foydalangan holda etarli darajada og'zaki muloqot ko'nikmalarini namoyish eta olishi.

MAJBURIY FANLARDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVINI O'TKAZISH TARTIBI VA UNI BAHOLASH MEZONI

Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun tuzilgan topshiriqlar Umumyevropa kompetensivalari (CEFR) darajalari asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baholanadi. Umumiy 100 ball bo'lgan yakuniy topshiriqlar bo'limlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- majburiy fanlaridan test savollari —20 ball
- tinglab tushunish ko'nikmasi — 20 ball
- o'qish —20 ball
- yozuv ko'nikmasi — 20 ball
- gapirish ko'nikmasi - 20 ballni tashkil etadi.

1. Majburiy fanlar bo'yicha har bir to'g'ri javob 0,5 balldan baholanadi.
2. Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'limidagi har bir to'g'ri javob 1 balldan baholanadi.
3. O'qish ko'nikmasi bo'limidagi har bir to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

4. Yozuv ko'nikmasini baholash bo'yicha mezonlar

Ball	UYK(CEFR) indikatorlari	Til	Yozish strategiyasi
90-100 (18-20)	Tegishli muhim masalalarni ta'kidlagan holda murakkab mavzularda aniq va tushunarli matn yoza oladi; Mos keladigan misollardan	Grammatik xatolardan holi va agar biror xatoga yo'l qo'yilgan taqdirda xam matnni tushunishida o'quvchiga mutlaqo	Vazifa ko'rsatmasiga to'liq amal qilingan. Fikrlar to'liq yoritilgan va misollar bilan samarali boyitilgan.

	foydalanib, sabablarini ochib bergan holda masalalarni keng yorita oladi va oydinlik kiritiladi. Yozilgan matnni o'qiydigan o'quvchiga mos keladigan va tushunarli bo'ladigan uslubni tanlash oladi.	qiyinchilik tug'dirmaydi; So'z boyligidan unumli foydalangan va shuningdek, takrorlashlarga yo'l qo'ymay, turli sinonimlar, sifat va ravish so'zlardan samarali foydalangan.	Ehtiyojga ko'ra shaxsiy tajribaga asoslangan misollar o'z o'rnida ishlatilgan. Yozilgan matnning hajmi talabga mos kelishi.
71-89 (14-17)	Insho, hisobot kabilarni yozishda dalillarga va misollarga tizimli yondashgan holda masalaning afzalliklari va kamchiliklarini yoritib oladi. Xatlarni yozishda shaxsiy hayotiy tajribasi va misollardan foydalana oladi. Murakkab mavzularda math yoza olsa ham har doim ham fikrlarga etarli darajada aniqlik kiritmaydi	Gaplar grammatik va leksik jihatdan deyarli to'g'ri tuzilgan biroq ba'zi xatolardan mavjud; Ba'zida uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan; Matnning ba'zi qismlarda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.	Mavzuni yoritishga harakat qilingan, biroq ba'zi joylarda mavzudan tashqari fikrlar berilgan. Ba'zi fikrlar o'rnida ishlatilgan bo'lsada, yetarlicha yoritilmagan yoki misollar bilan yetarlicha boyitilmagan. Matn hajmi belgilangan talabdan kamroq.
60-70 (12-13)	O'ziga qiziq bo'lgan mavzularda qisqa va sodda insholar yoza oladi. Kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan. Va kasbiga doir masalalarda xulosa, hisobot yoza oladi va faktlarga asoslangan ma'lumotlarni o'z fikrlari bilan boyitgan holda yozma bayon etadi. Nisbatan sodda, shaxsiy xatlarni tushunarli bayon etgan holda yoza oladi. Standart formatda ma'lum bo'lgan faktlarga asoslangan ma'lumotlar va takliflarni qo'llagan holda juda qisqa hisobot yoza oladi. Tajriba va his-tuyg'ularini tasvirlagan holda shaxsiy xat yoza oladi.	Grammatik va leksik xatolarga yo'l qo'yilgan. Biroq mazmun tili tushunarli. So'z boyligi chegaralangan. Tanlangan uslub yozuv matni bilan unchalik mos emas. Matn qoniqarli tuzilgan. Yo'l qo'yilgan xatolar matn mazmunini tushunishda qiyinchilik tug'diradi. So'z boyligi juda chegaralangan. Matnning stilistik (uslubiy) tuzilishi to'g'risidagi bilimi cheklangan Matnni tuzishda e'tiborsizlikka yo'l qo'ygan	Vazifada ko'rsatilgan mavzuni aniq yoritmagan. Fikrlar yuzaki berilgan va misollar aniq emas. Matnning hajmi talab darajasida emas. Yoritilgan ba'zi fikrlar topshiriq mazmuniga Tog'ri kelmaydi. Fikrlar tor doirada berilgan va misollar juda kam berilgan. Matn hajmi qo'yilgan talabdan ancha kam.
60 dan past (12 dan past)	Yuqoridagi talabalarga javob bera olmagan holatda mutaxassislik (chet tili) fanidan yakuniy davlat atestatsiyasi sinovidan o'tmagan hisoblanadi.		

6. OG'ZAKI MULOQOT KO'NIKMASI VA STRATEGIYALARINI QO'LLASH BO'YICHA MEZON.

Gapirish ko'nikmasi bo'yicha intervyu quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- Intervyu o'tkazish uchun har bir juftlik uchun 2 nafar o'qituvchi jalb qilinadi. Ularning biri intervyu boshqaruvchi va ikkinchisi baholovchi vazifasini bajaradilar. Har bir juftlikdan song har ikkala baholovchi baholarni o'zaro muhokama qilgan va kelishgan holda eng so'nggi ballni beradilar.
- Intervyu o'tkazuvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan barcha test materiallari (savollar, baholash mezonlari tasnifi, bahoni qayd etish shakli, izohlar yozib borish uchun oq qog'oz, soat) bilan intervyu stoliga joylashadi.
- Baholovchi ham baholash mezonlari tasnifi, bahoni qayd etish shakli, izohlar yozib borish uchun oq qog'oz bilan test topshiruvchilar stolidan 2-3 metr uzoqdagi stolda joylashadi.
- 2 ta talaba intervyu xonasiga taklif etiladi va intervyu o'tkazuvchiga qarama-qarshi tomonda joylashadilar.
- Intervyu o'tkazuvchi intervyu boshlanganda, soat va ehtiyojga ko'ra intervyuni yozib olish uchun diktofonni yoqib qo'yadi.
- Har bir talaba o'z ismi-sharifini va guruhini intervyuni olib boruvchiga ma'lum qiladi.
- 2-qismni boshlaganda birinchi o'ylash uchun beriladigan mavzuni va bir daqiqa vaqt ajratadi. O'ylash vaqti boshlanayotganda taymerni yoqadi. Shu vaqtda intervyu oluvchi mezonlarni ko'rib chiqishi va ma'lum qaydlarni qilishi mumkin. Ushbu qaydlardan baholovchi munozara va kelishuv vaqtida foydalanadi.
- Har bir talaba uchun umumiy 8-10 daqiqa beriladi, o'ylash uchun 1 daqiqa ajratiladi.
- Intervyu tugaganda, uni o'tkazuvchi va baholovchi birga o'tirib, o'z baholarini mezonlarga asosan taqqoslaydilar. Yakuniy baho qo'yilib, qaydnomada qayd etilgandan so'ng keyingi juftlik taklif etiladi.
- Topshiriq uchun umumiy ball berish orqali juftlikdagi har bir sinov topshiruvchi alohida baholanadi.

Gapirish ko'nikmasini baholash mezonlari

— CEFR darajalari gapirish ko'nikmasi uchun ishlab chiqilgan indikatorlar;

— Til tizimidan (so'z boyligi, grammatik savodxonlik, talaffuz) to'g'ri foydalanish bo'yicha mezon.

Ball	CEFR indikatorlari	Til tizimidan to'g'ri foydalanish	Strategiyalarni qo'llay olishi
------	--------------------	-----------------------------------	--------------------------------

90-100 (17-20)	O'z fikrlarini aniq va qiynalmasdan bayon qiladi. So'z iboralar va og'zaki nutq strategiyalarini tanlashda deyarli qiynalmaydi. Faqatgina qiyin konseptual mavzularni hisobga olmasa, nutqi doimo ravon va tabiiy. Nima haqida gapirishni rejalashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o'z nutqini tuza oladi.	Murakkab gaplarni ishlatishda ba'zi xatolarga yo'l qo'yilgan taqdirda ham muloqotning sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Grammatik va leksik birikmalardan, imkoniyatlardan keng foydalanadi. Juda keng leksik repertuarga ega. Rasmiy va norasmiy til birikmalaridan to'g'ri foydalanadi. Ma'no va his-tuyg'ularni ifodalashga mos keladigan talaffuz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanadi. Talaffuzi tushunarli va test topshiruvchining aksenti uning nutqini tushunishga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.	Bog'lovchi birikmalardan samarali foydalanadi va sukutni mos keladigan perifrazalar bila to'ldira oladi. Muloqotning ravon ketishini buzmaganda holda duch keladigan ba'zi qiyinchiliklarni yenga oladi va aytmoqchi bo'lgan fikrini boshqacha yo'l bilan tushuntira oladi. Savollarni aniqlashtirishi mumkin.
71-89 (14-16)	Umumiy, ta'lim, kasbiy va madaniy hordiq kabi mavzularda o'zaro fikrlarni bog'lagan holda tilni deyarli xatosiz, ravon ishlata oladi. Tayyorgarlik ko'rmasdan turib, rasmiy va norasmiy vaziyatni his etgan holda To'satdan muloqotga kirisha oladi. Nima haqida gapirishni rejalashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o'z nutqini tuza oladi. Til sohiblari bilan duch kelishi mumkin bo'lgan kutilmagan muloqotni imkon boricha erkin olib bora oladi. Voqealar va tajribalari haqida gapirganda muhim joylariga urg'u bera oladi, tegishli dalil va misollar, o'z nuqtai nazarini bilan o'rtoqlasha oladi.	Murakkab gaplarda ba'zi muhim bo'lmagan va muloqotning mazmuniga ta'sir qilmayigan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Grammatik birikmalardan va leksik imkoniyatlardan keng foydalanadi. Rasmiylik darajasini deyarli to'g'ri tanlay oladi. Bir oz ikkilanib va sukut saqlash holatlari inobatga olmaganda nutqini ravon tuza oladi. Intonatsiya va talaffuzi nutqqa mos va faqat juda kam holatlarda muloqot mazmunini tushunishga ta'sir qilmaydigan xatoga yo'l qo'yishi mumkin.	Bog'lovchi birikmalardan samarali foydalanadi va sukutni mos keladigan perifrazalar bila to'ldira oladi. O'zi yo'l qo'ygan xatolarini sezadi va zudlik bilan tuzatib keta oladi. Savollarni aniqlashtirishi mumkin. Jummalarni boshqalari bilan o'zgartirishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin, masalan ba'zan sinonimlar, iboralar, so'z birikmalaridan ma'lum darajada foydalana oladi. O'z xatolarini tushunadi va tuzata oladi. Ba'zi berilgan savollar va ko'rsatmalarni tushunishda yoki talqin etishda xatolikka yo'l qo'yishi mumkin.

60-70 (11-13)	O'z qiziqishlari va kasbiga doir o'ziga ma'lum va unchalik ma'lum bo'lmagan mavzularda gapira oladi. Fikr almasha oladi, maqullay oladi, kundalik turmushga oid bo'lmagan masalalarda gapira oladi va muammoni tushuntira oladi. Abstrakt mavzularda, shuningdek madaniyat, film, kitolar musiqa kabi mavzularda gapira oladi. Fikrini aytishda qiyinroq kombinatsiyalardan foydalanib ko'rishga harakat qiladi va intervyu oluvchining ma'qullashini kutadi.	Sodda gaplar to'g'ri tuzilgan, biroq murakkab gaplarni tuzishda qiynaladi va xatolarga yo'l qo'yadi. Shaxsiy ma'lumotlarni va rasmlarni tasvirlash uchun so'z boyligi yetarli. Oddiy so'zlarni to'g'ri ishlatadi biroq kam uchraydigan so'zlardan unchalik foydalanmaydi. Ritm va nutq tezligiga amal qila oladi, intonatsiyani to'g'ri qo'llashda bilimi chegaralangan. Ba'zan so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Qisqa gaplarni bexato tuza oladi, biroq murakkab gaplarni tuzishda mazmunni tushunishga ta'sir qilmaydigan xatolarga yo'l qo'yadi.	Sodda xatolarini o'zi tuzatib keta oladi. Bilmagan so'zini uni tushuntirish yoki mos keladigan xislatlarini tushuntirishga harakat qilish orqali ifodalashi mumkin. Zamonlar va birikmalar o'rtasida chalkashlikka yo'l qo'yishi mumkin. O'zi ishlatgan ibora yoki gap strukturalarini to'g'ri qo'llagani haqida test o'tkazuvchining tasdig'ini so'rashi mumkin. Ba'zan muloqot uzilib qolganda turli usullardan foydalangan holda uni tiklashga harakat qiladi. Ko'p hollarda savollarni tezda tushunishga qiynaladi.
60 dan past (11dan past)	Yuqoridagi talabalarga javob bera olmagan holatda mutaxassislik fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'tmagan hisoblanadi.		

ESLATMA: Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi ballari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri



Sh. Uzoqova